

O'ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASINING USTUVOR YO'NALISHLARI BO'YICHA TADQIQOTLAR

I Respublika ilmiy-amaliy konferensiya
MATEARIALLARI



1-JILD | 1-SON
2025-YIL

KONFERENSIYALAR .COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**O'ZBEKISTON TARAQQIYOT
STRATEGIYASINING USTUVOR
YO'NALISHLARI BO'YICHA
TADQIQOTLAR**

**I RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, sentyabr

TOSHKENT-2025

ISBN-978-9910-09-362-3

O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo'nalishlari bo'yicha tadqiqotlar I Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami. 1-jild, 1-son (sentyabr, 2025-yil). – 78 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiylar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 18- sentyabr

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo'nalishlari bo'yicha tadqiqotlar" mavzusidagi I Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rinni olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, strategiya, ustuvor yo'nalishlar, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, texnologik taraqqiyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huqular himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2025-yil

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

MUNDARIJA

TEXNIKA FANLARI

Sadikov Akramjon

AK-2 ANTIPIREN KOMPOZITSIYASINING ELEKTRON SKANERLOVCHI MIKROSKOR (ESM) VA ELEMENT TAHЛИLI 5-8

Yusupova Dilfuza, Maqsudov Nabijon

YUQORI HARORAT TA'SIRIDAN MAXSUS HIMOYA KIYIMLARINI ISHLAB CHIQARISH UCHUN MATERİALLARGA QO'YILADIGAN TALABLAR 9-11

TARIX FANLARI

Xusanov Ximmat

SAAD ZAGLUL BOSHCHILIGIDA MISRLIKLARNING MUSTAQILLIK UCHUN KURASHI 12-14

IQTISODIYOT FANLARI

Ikramov Axbар

СОСТОЯНИЕ И РАЗВИТИЕ ГОСТИНИЧНОГО БИЗНЕСА В УЗБЕКИСТАНЕ 15-18

Baxridinova Shaxnozaxon

KICHIK TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA
TEXNOLOGIK INNOVATSIYALAR NING O'RNI 19-22

FALSAFA FANLARI

Raxmatov Bekzod

O'ZBEKİSTONDA FUQAROLIK JAMIYATI RIVOJLANISHIDA MILLIY G'OYA VA
MAFKURANING AHAMIYATI 23-30

FILOLOGIYA FANLARI

Ibrogimova Dilnoza

DEVONI LUGOTIT-TURK ASARIDA KASB-HUNAR LEKSİKASINING
LEKSİK-SEMANTIK TAHЛИLI 31-35

Po'latova Lobar

"YANGI DAVR" INFORMATSION DASTURI – O'ZBEKİSTON YOSHLARINING AXBOROT
MANBALARIDAN BIRI SIFATIDA 36-40

Самиева Иродахон

КОРОТКО ОБ ИСТОРИИ ИЗУЧЕНИЯ СОЦИОЛИНГВИСТИЧЕСКИХ ТЕОРИЙ 41-47

YURIDIK FANLARI

Qayumberdiyeva Dildora

O'ZBEKİSTON RESPUBLIKASI DA MEDIATSIYA INSTITUTINI TARTIBGA SOLISH BILAN
BOG'LIQ AYRIM MUAMMOLAR 48-51

PEDAGOGIKA FANLARI

Xamrakulova Kumush

QULAY TA'LIM MUHITI YARATISHDA OTA-ONALAR, MAHALLA VA
MAKTABNING IJTIMOY HAMKORLIGI 52-56

Nishanbayeva Nozimaxon

METHODOLOGICAL APPROACHES TO TEACHING LISTENING IN A DIGITAL EDUCATIONAL
ENVIRONMENT 57-61

Jololdinov Asror

KARTOGRAFIYANI O'QITISHDA ZAMONAVIY METODIK YONDASHUVLAR VA ULARNING
SAMARADORLIGI 62-67

Mirzayeva Umidaxon

FIZIKA DARSLARIDA O'QUVCHILARNING FUNKSIONAL SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA PISA
TOPSHIRIQLARI ROLI 68-69

TIBBIYOT FANLARI

Mirzaahmedova Muxarram, Atamuratova Aйпаршин

VЛИЯНИЕ СТРОИТЕЛЬНОГО МАТЕРИАЛА ДЕТСКОГО САДА НА ФИЗИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ
ДОШКОЛЬНИКОВ 70-72

Abdusalomov Sanjar, Abdusalomov Sunnatulla, Botirov Kamronbek

TISH EMALINING REMINERALIZATSIYA QILISHNING YANGI TEXNOLOGIYA VA
USULLARI 73-77

YURIDIK FANLARI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MEDIATSIYA INSTITUTINI TARTIBGA SOLISH BILAN BOG'LIQ AYRIM MUAMMOLAR

Qayumberdiyeva Dildora Doniyor qizi,

TDYU qoshidagi M.S.Vosiqova nomidagi akademik litseyning huquqiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi

Tel: +998 99 813 66 69

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida mediatsiya institutini tartibga solish bilan bog'liq ayrim muammolar yoritilgan. Xususan, mediatsiya kelishuvi ijrosini ta'minlash mexanizmining mavjud emasligi, xalqaro mediatsiya kelishuvlarini tan olish va ijob etish bo'yicha yagona huquqiy tartibning yo'qligi kabi masalalar tahlil qilingan. Shuningdek, Singapur mediatsiya konvensiyasining ahamiyati hamda texnologiyalar taraqqiyotining mediatsiya jarayoniga ta'siri haqida so'z yuritiladi. Muallif mediatsiyaning huquqiy bazasini takomillashtirish va nizolarni hal qilishda uning samaradorligini oshirish zarurligini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: mediatsiya, nizolarni hal qilish, xalqaro mediatsiya kelishuvi, Singapur konvensiyasi, axborot texnologiyalari.

SOME ISSUES RELATED TO THE REGULATION OF THE INSTITUTION OF MEDIATION IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Qayumberdiyeva Dildora Doniyor qizi,

Lecturer, Department of Legal Sciences,
M.S. Vosiqova Academic Lyceum under
Tashkent State University of Law

Annotation. This article highlights certain issues related to the regulation of the institution of mediation in the Republic of Uzbekistan. In particular, it addresses the absence of an enforcement mechanism for mediation agreements and the lack of a unified legal framework for the recognition and enforcement of international mediation settlements. The paper also discusses the significance of the Singapore Convention on Mediation and the impact of technological development on mediation processes. The author emphasizes the necessity of improving the legal framework of mediation and enhancing its effectiveness in dispute resolution.

Key words: mediation, dispute resolution, international mediation settlement, Singapore Convention, information technologies.

Ma'lumki, O'zbekistonda nizolarni hal etish uchun mediatsiya shakli azaldan qo'llanilgan. Mahallalarda oila masalalari bilan mahalla oqsoqoli shug'ullanayotgani bunga yaqqol misoldir. Bu holatlar O'zbekistonda mediatsiya institutining huquqiy asoslarini yaratishga zamin yaratdi. Natijada 2018 yilda mediatsiya instituti o'zining huquqiy asosiga ega bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasining "Mediatsiya to'g'risidagi" Qonuni mediatsiya sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi. Jumladan, mediatsiyaning asosiy tushuncha va tamoyillari, taraflarning mediatsiyadagi huquq va majburiyatları, mediatorga qo'yiladigan talablar, vakolatlar, mediatsiyani qo'llash va o'tkazish shartlaridan iborat. E'tiborlisi, mazkur qonunga muvofiq, mediatsiya xizmatlari professional va noprofessional asosda ko'rsatilishi mumkin.

Professional mediatorlar to'g'risidagi ma'lumotlar maxsus kurslarni tamomlagandan so'ng Professional mediatorlar reyestriga kiritiladi.

Bugungi kunda mediatsiya instituti bilan bog'liq bo'lgan 14 dan ortiq qonun hujjalarga o'zgartishlar kiritilgan:

- "Mamlakatda ishbilarmonlik muhitini yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjalariiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonun;

- O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, Fuqarolik protsessual kodeksi, Iqtisodiy protsessual kodeksi, Soliq kodeksi;

- O'zbekiston Respublikasining "Hakamlik sndlari to'g'risida"gi Qonuni;

- O'zbekiston Respublikasining "Advokatura to'g'risida"gi qonuni;

- "Yuridik yordam va yuridik xizmatlar tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjalariiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni;

- O'zbekiston Respublikasining "Sud hujjalari va boshqa organlar hujjalarini ijro etish to'g'risida"gi qonuni;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Advokatura instituti samaradorligini tubdan oshirish va advokatlarning mustaqilligini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida notariat tizimini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni;

- Prezidentning "Sud hujjalari va boshqa organlar hujjalarini ijro etish samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.

Yuqorida qonun hujjalarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining "Mediatorlarni tayyorlash dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi buyrug'i qabul qilindi. Mediatorlar uchun buyurtma dasturi to'rtta moduldan iborat bo'lib, mediatorlarni o'qitishning o'quv rejasining asosini tashkil etadi. Dastur shuningdek, mediatorlarni tayyorlash uchun xalqaro standartlar asosida ishlab chiqilgan. O'quv rejasi tavsiyaviy xususiyatga ega bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Yuristlar malakasini oshirish markazi tomonidan tasdiqlanadi.

O'zbekistonda mediatsiya instituti rivojlanishda davom etmoqda. Albatta, bu sohada ham bir qator muammolar mavjud.

Mediatsiya institutining asosiy muammosi - bu mediatsiya kelishuvini ijro etishning hech qanday mexanizmining yo'qligidir.

Mediatsiya kelishuvini amalga oshirish mexanizmini yaratish zarurati shundan iboratki, tomonlar mediatsiya shartnomasini imzolaganidan keyin ulardan biri ushbu shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarni bajarishni kechiktirishi yoki bajarishni rad etishi mumkin. Bunday harakat majburiyatning bajarilishini talab qilayotgan tarafga zarar yetkazadi va natijada u nizoni hal qilish uchun yana sudga murojaat qilishga majbur bo'ladi. Shundan so'ng, nizolarni hal qilishda mediatsiyaning roli samarasizligicha qoladi. Shuningdek, mediatsiyaga murojaat qilish holatlarining kamayishiga ham olib kelmoqda. Chunki odamlar mediatsiya imkoniyatlariga ishonmaydi va tavakkal qilmaslik uchun mediatsiyadan ko'ra sudga murojaat qilishni afzal ko'radi.

Ikkinchchi muammo shundaki, O'zbekiston qonunchilik tizimida xalqaro mediatsiya kelishuvlarini tan olish va ijro etishning yagona rejimini mavjud emaslidadir.

Chunki ishlab chiqarishning rivojlanishi, tashqi savdo munosabatlarining kengayishi shuningdek tadbirkorlik munosabatlarining o'sishi, bugungi kunda u bilan bog'liq bo'lgan nizoli holatlarning ham ko'payishiga olib keladi.

Yuqoridaq holatlarni inobatga olgan holda, xalqaro mediatsiya kelishuvlarini tan olish va ijro etish bo'yicha mexanizmning mavjud emasligi, mediatsiyadan kengroq foydalanish yo'lidagi asosiy to'siqlardan biri bo'lib qolmoqda. Singapur mediatsiya konvensiyasi bu to'siqni bartaraf qiladi va shuning uchun korxonalar transchegaraviy nizolarni hal qilishda mediatsiyaga tayanishi mumkinligiga ko'proq ishonch hosil qilishadi. Chunki zarurat tug'ilganda ular xalqaro mediatsiya kelishuvlarini bevosita amalga oshirishlari mumkin bo'ladi.

Singapur konvensiyasi xalqaro savdoni yengillashtirish va xalqaro mediatsiya kelishuvlari uchun tezlashtirilgan rejimni o'rnatish orqali xalqaro tijorat nizolarida mediatsiyadan foydalanishni rag'batlantirishga qaratilgan. Singapur konvensiyasi xalqaro tijorat vositachiligi sohasiga aniqlik va barqarorlik olib keladi, chunki uning natijasida korxonalar Singapur konvensiyasiga muvofiq xalqaro mediatsiya bo'yicha kelishuv bitimlarini to'g'ridan-to'g'ri tezkorlik bilan amalga oshirishlari mumkin bo'ladi.

Bundan tashqari so'nggi o'n yillikda texnologiya jadal suratlarda rivojlanib jamiyatning har bir sohasiga kirib bormoqda. Albatta, bu kabi holatlar jamiyatning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmasdan qolmaydi. Hukumat idoralari, korxona tashkilotlar boshqa ko'plab muassasalarda ish jarayonlari to'laligicha axborot texnologiyalaridan foydalangan holda olib borilmoqda. Ma'lumki, ilgari texnologiya faqat dasturiy ta'minot muhandislari va kichik IT hamjamiyatini qiziqtirgan bo'lsa, endi u dunyoni har sohasini boshqaruvchi kuchli vositaga aylandi.

Hozirgi kunda, onlayn rejimga o'tmagan sohani tasavvur qilish qiyin bo'lganidek, bank, sug'urta, konsalting, ta'lim, tijorat, iste'molchi xaridlari, ko'ngilochar va hatto hukumatlar va munitsipalitetlar tomonidan taqdim etiladigan ba'zi davlat xizmatlari online rejimda ham xizmat ko'rsatish amaliyoti joriy qilinganligiga guvoh bo'lamiz. Texnologiya rivojlanishi bilan jamiyat hayotiga yangi tushunchalar ham kirib kela boshladи. Xususan, yangi tarmoqlar va domen nomlari savdosi, veb-xosting, onlayn o'yinlar, bulutli saqlash, blokcheyn va kriptovalyutalar, aqlli kontraktlar va boshqalarni misol qilib keltirishimiz mumkin.

Ma'lumki, hozirgi kunda sud amaliyotida ham videokonferensiya aloqa vositasidan foydalangan holda sud protsessi o'tkazish hollari, da'vo arizasini sudga online topshirish, electron hujjatlar aylanishi kabi holatlari mavjudligi jamiyat hayotiga ancha yengilllik baxsh etdi.

Shunday ilm-fan, texnologiya rivojlangan bir paytda nizolarni muqobil hal etishda axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanish nizolarni hal etishda yanada samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, O'zbekiston Respublikasida mediatsiya institutining huquqiy asoslari yaratilgan bo'lsa-da, amaliyotda uni qo'llash jarayonida qator muammollar mavjudligi ko'zga tashlanadi. Jumladan, mediatsiya kelishuvlarini majburiy ijro etish mexanizmining yo'qligi, xalqaro mediatsiya kelishuvlarini tan olish va ijro etishning yagona tartibi mavjud emasligi, aholining mediatsiyaga bo'lgan ishonchi yetarli darajada shakllanmaganligi kabi omillar institutning samaradorligini pasaytiradi. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar rivoji mediatsiyani yangi bosqichga olib chiqish imkoniyatini yaratmoqda. Shu sababli, mediatsiya institutining huquqiy bazasini yanada takomillashtirish,

xalqaro tajribani keng joriy etish hamda raqamli vositalardan foydalanish orqali ushbu institutning amaliy samaradorligini oshirish zarur.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasining "Mediatsiya to'g'risida"gi Qonuni. Qabul qilingan sana: 2018-yil 3-iyul. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2018-y., № 27.
2. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi.
3. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi.
4. O'zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksi.
5. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi.
6. O'zbekiston Respublikasining "Hakamlik sudlari to'g'risida"gi Qonuni.
7. O'zbekiston Respublikasining "Advokatura to'g'risida"gi Qonuni.
8. O'zbekiston Respublikasining "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida"gi Qonuni.
9. O'zbekiston Respublikasining "Mamlakatda ishbilarmonlik muhitini yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar qabul qilinganligi munosabati bilan ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonuni.
10. O'zbekiston Respublikasining "Yuridik yordam va yuridik xizmatlar tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonuni.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Advokatura instituti samaradorligini tubdan oshirish va advokatlarning mustaqilligini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida notariat tizimini tubdan isloq qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.
14. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining "Mediatorlarni tayyorlash dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi buyrug'i.
15. United Nations Convention on International Settlement Agreements Resulting from Mediation (Singapore Convention on Mediation). Adopted on 20 December 2018, entered into force on 12 September 2020.

O'ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASINING USTUVOR YO'NALISHLARI BO'YICHA TADQIQOTLAR

I RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2025-yil, sentyabr

Mas'ul muharrir:

F.T.Isanova

Texnik muharrir:

N.Bahodirova

Diszayner:

I.Abdihakimov

O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo'nalishlari bo'yicha tadqiqotlar. I Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami. 1-jild, 1-son (sentyabr, 2025-yil). – 78 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiylar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 18- sentyabr

ISBN-978-9910-09-362-3

Barcha huqular himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2025-yil.

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.